DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-11-13 Pages: 152-164

Oriental Journal of History, Politics and Law

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl

A COMPARATIVE ANALYSIS OF SALAM AND ISTISNA‘ CONTRACTS IN KANZ AL-DAQA’IQ

Nurillo Masidikovich Yuldashev
Researcher
International Academy of Islamic Studies of Uzbekistan
E-mail: n.yuldashev@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kanz al-Daqa’iq, Hafiz al-Din al-Nasafi, Hanafi fiqh, mu‘amalat, salam, istisna‘, ta‘amul, khiyar al-ru’ya, rahn.

Received: 01.11.26
Accepted: 02.11.26
Published: 03.11.26

Abstract: The article compares the salam and istisna‘ contracts as presented in Kanz al-Daqa’iq by Hafiz al-Din al-Nasafi (d. 710/1310) and its commentaries by al-Zayla‘i and Ibn Nujaym. The study asks which features make an agreement clear and enforceable when goods are not delivered at contracting. The text, its commentaries and earlier and later Hanafi works (al-Kasani, al-Marghinani, Ibn ‘Abidin) are analysed by comparative, systematic, terminological and historical methods. Instead of advance payment alone, eight criteria are applied: subject matter, specification of goods, time of payment, performance and delivery, custom (ta‘amul), the option of inspection, binding force and the link with pledge (rahn). In salam the decisive conditions are the genus, type, quality and quantity of goods, their availability until delivery, payment of the capital (ra’s al-mal) before the parties leave the contractual session, a fixed term and, for goods that require carriage, a fixed place of delivery (according to Abu Hanifa). In istisna‘ the decisive factors are established practice, manufacture to order, material supplied by the maker and the buyer’s option of inspection. The views of Abu Hanifa, Abu Yusuf and Muhammad al-Shaybani are kept separate. Two tables summarise the results; recommendations for teaching and translation are given.

“KANZ UD-DAQOIQ” ASARIDA SALAM VA ISTISNO’ SHARTNOMALARINING QIYOSIY TAHLILI

Nurillo Masidikovich Yuldashev
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tadqiqotchisi
E-mail: n.yuldashev@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Kanz ud-daqoiq”, Hofizuddin Nasafiy, hanafiy fiqhi, muomalot, salam, istisno’, taomul, xiyor ar-ru’ya, rahn.

Annotatsiya: Maqolada Hofizuddin Nasafiyning (vaf. 710/1310) “Kanz ud-daqoiq” asari hamda uning Zaylaiy va Ibn Nujaym sharhlari asosida salam va istisno’ shartnomalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot savoli: mahsulot shartnoma vaqtida topshirilmaydigan holatlarda kelishuvning aniqligi va ijrosi qaysi belgilar orqali ta’minlanadi? Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, matn, sharhlar hamda oldingi va keyingi hanafiy asarlar (Koshoniy, Marg‘inoniy, Ibn Obidin) qiyosiy, tizimli, terminologik va tarixiy usullarda o‘rganildi. Tahlil sakkiz mezon bo‘yicha olib borildi: predmet, mahsulot tavsifi, to‘lov vaqti, ijro va topshirish, urf-taomul, xiyor ar-ru’ya, majburiylik va rahn bilan aloqa. Salamda mahsulotning jinsi, navi, sifati va miqdori, uning shartnomadan topshirish muddatigacha bozorda mavjudligi, ra’s al-molning majlisda to‘lanishi hamda muddatning, tashish talab qiladigan mahsulotda esa (Abu Hanifa nazdida) topshirish joyining aniqligi hal qiluvchi shartlar ekani ko‘rsatildi. Istisno’da taomul, buyurtma bo‘yicha tayyorlash, materialning ustadan bo‘lishi va buyurtmachining ko‘rish huquqi asosiy o‘rin tutadi. Ishning yangiligi shundaki, ikki shartnoma bitta iqtisodiy belgi – oldindan to‘lov orqali emas, mezonlar tizimi asosida qiyoslandi. Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad Shayboniy qarashlari alohida saqlandi. Natijalar ikki jadvalda umumlashtirilib, o‘qitish va tarjima uchun tavsiyalar berildi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДОГОВОРОВ САЛАМ И ИСТИСНА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «КАНЗ УД-ДАКАИК»

Нурилло Масидикович Юлдашев
Исследователь
Международной академии исламоведения Узбекистана
E-mail: n.yuldashev@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Канз уд-дакаик», Хафизуддин ан-Насафи, ханафитский фикх, муамалат, салам, истисна, таамуль, хияр ар-руйа, рахн.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ договоров салам и истисна по произведению Хафизуддина ан-Насафи (ум. 710/1310) «Канз уд-дакаик» и комментариям к нему аз-Зайлаи и Ибн Нуджайма. Исследовательский вопрос: какими признаками обеспечиваются определённость и исполнимость соглашения, если товар не передаётся в момент заключения договора? Исследование носит теоретико-аналитический характер: текст, комментарии и более ранние и поздние ханафитские труды (аль-Касани, аль-Маргинани, Ибн Абидин) изучены сравнительным, системным, терминологическим и историческим методами. Анализ проведён по восьми критериям: предмет, описание товара, время оплаты, исполнение и передача, обычай (таамуль), право осмотра (хияр ар-руйа), обязательность и связь с залогом (рахн). Показано, что для салама решающими являются определённость рода, вида, качества и количества товара, его наличие на рынке от заключения договора до срока передачи, уплата капитала салама (ра’с аль-маль) в маджлисе договора до разъединения сторон, определённость срока, а для товара, требующего перевозки, по Абу Ханифе, и места передачи. Для истисна определяющими выступают сложившаяся практика, изготовление по заказу, материал изготовителя и право заказчика на осмотр изделия. Новизна работы в том, что договоры сопоставлены по системе критериев, а не по одному экономическому признаку – предоплате. Мнения Абу Ханифы, Абу Юсуфа и Мухаммада аш-Шайбани рассматриваются раздельно. Результаты обобщены в двух таблицах, даны рекомендации для преподавания и перевода.

Kirish. Mahsulot kelajakda yetkazib beriladigan yoki buyurtma bo‘yicha tayyorlanadigan kelishuvlarda taraflar shartnoma tuzilayotgan paytda narsani ko‘rib, uning barcha belgilarini tekshira olmaydi. Shu sababli qanday narsa topshirilishi, qachon va qayerda topshirilishi, tavsifga

mos kelmasa qanday yo‘l tutilishi haqida savollar tug‘iladi. Klassik hanafiy fiqh bu savollarga salam va istisno’ boblarida javob izlagan. Hofizuddin Abulbarakot Nasafiy (vaf. 710/1310) qalamiga mansub “Kanz ud-daqoiq” hanafiy mazhabining qisqa matnlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, mulkiy munosabatlarni ixcham, lekin shart va istisnolarga boy tarzda bayon qiladi [1; 2].

Nasafiyning nisbasi uning Nasaf (hozirgi Qarshi) bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi; u Movarounnahr hanafiy maktabining vakili bo‘lib, Kirmondagi madrasada dars bergan, umrining oxirida Bag‘dodga borgan [2]. “Kanz ud-daqoiq” uning o‘zi yozgan kengroq “al-Vofiy” asarining qisqartmasi sifatida yaratilgan va keyingi asrlarda madrasalarda yodlanadigan, ko‘p sharhlangan matnlardan biriga aylangan [2–4]. Asarning O‘rta Osiyo, Usmonli hududlari va Hindistonda ko‘p marta sharhlangani salam bobi va undagi istisno’ masalasining talqin tarixini kuzatish imkonini beradi. Bu boblarni o‘rganish o‘zbek islomshunosligi uchun ham ahamiyatli, chunki muallif shu zamin olimi bo‘lgan va asar mintaqa madrasalarida o‘qitilgan [1].

Muallifning dissertatsiya tadqiqotida salam, istisno’ va rahn ikkinchi bobning bir-biriga yaqin paragraflarida ko‘rib chiqilgan [1]. Bu yaqinlik ularni bir turdagi shartnoma deb hisoblashga asos bermaydi. Salamda kelajakda topshiriladigan, tavsif bilan aniqlangan mahsulot markazda turadi; istisno’da buyurtma asosida tayyorlanadigan buyum; rahnda esa majburiyatni ta’minlash. Zamonaviy islomiy moliya adabiyotida salam va istisno’ ko‘pincha “oldindan to‘lanadigan” yoki “kelajakdagi mahsulot savdosi” sifatida bir guruhga kiritiladi [5; 6]. Bunday umumlashtirish tushunishni osonlashtirsa-da, klassik matndagi shartlar farqini yashirib qo‘yishi mumkin.

Maqolaning maqsadi – “Kanz ud-daqoiq” va uning asosiy sharhlari materiali asosida salam va istisno’ning umumiy jihatlari hamda farqlarini aniqlash. Tadqiqot savoli quyidagicha: mahsulot shartnoma vaqtida topshirilmaydigan ikki holatda kelishuvning aniqligi va ijro qilinishi qaysi belgilar orqali ta’minlanadi? Javob izlash uchun shartnoma predmeti, mahsulot tavsifi, to‘lov vaqti, ijro, urf-taomul, ko‘rish huquqi, majburiylik va ta’minot bilan aloqa alohida mezon sifatida olinadi. Ishning yangiligi shundaki, ikki shartnoma bitta iqtisodiy belgi orqali emas, shu sakkiz mezon bo‘yicha qiyoslanib, natija jadval ko‘rinishida beriladi; mazhab ichidagi qarashlar Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad Shayboniyga nisbat bilan saqlanadi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuning birlamchi manbasi “Kanz ud-daqoiq”ning o‘zidir. Ushbu tadqiqotda Soid Bakdosh tahqiqi bilan chop etilgan nashrdan foydalanildi; unda matn bir necha qo‘lyozma asosida tekshirilgan va ilmiy izohlar berilgan [2]. Asarning eng muhim sharhlaridan biri Usmon ibn Ali Zaylaiyning (vaf. 743/1343) “Tabyin al-haqoiq” asari bo‘lib, u Nasafiy iboralarini bobma-bob izohlaydi va mazhab ichidagi qarashlar dalilini keltiradi [3]. Zayniddin Ibn Nujaymning (vaf. 970/1563) “al-Bahr ar-roiq” sharhi muomalot masalalarini kengroq yoritadi va keyingi davr fatvo adabiyotiga tayanadi [4].

Salam va istisno’ning shartlarini to‘liqroq ko‘rish uchun “Kanz ud-daqoiq”dan oldin va keyin yozilgan hanafiy asarlar ham jalb qilindi. Alouddin Koshoniyning “Badoi’ as-sanoi’” asari shartnoma ruknlari va shartlarini tizimli tartibda bayon qiladi, istisno’ning istihson va taomulga asoslanishini alohida izohlaydi [7]. Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya”si Movarounnahr hanafiy an’anasining asosiy darsliklaridan biri bo‘lib, salam bobida (istisno’ ham shu bobning oxirida) mazhab imomlarining qarashlarini dalillari bilan keltiradi [8]. Ibn Obidinning “Radd al-muhtor” hoshiyasi esa keyingi davrda bu boblar qanday tushunilganini ko‘rsatadi [9].

Zamonaviy tadqiqotlar orasida M. H. Kamoliyning kitobi salamni fyuchers va opsion shartnomalari bilan solishtiradi hamda klassik shartlarni batafsil tahlil qiladi [5]. F. Vogel va S. Xeyz islomiy huquq va moliya munosabatini tavakkal va daromad tushunchalari orqali o‘rganib, salam va istisno’ni moliyalashtirish vositasi sifatida ko‘rib chiqadi [10]. M. T. Usmoniy ikki shartnomaning farqini amaliy moliya nuqtayi nazaridan tushuntiradi [6], M. El-Gamal esa ularning zamonaviy qo‘llanishidagi huquqiy va iqtisodiy muammolarni tanqidiy tahlil qiladi [11]. J. T. Borhan istisno’ning ta’rifi, salamdan farqi va qachon majburiy bo‘lishi haqidagi hanafiy qarashlarni umumlashtirgan [12]. Ushbu ishlarning aksariyati zamonaviy amaliyotdan boshlanib, klassik matnga dalil sifatida murojaat qiladi. Bu maqolada esa yo‘nalish teskari: avval aniq bir matndagi qoida va uning sharhdagi talqini o‘rganiladi.

Muallifning dissertatsiya tadqiqotida “Kanz ud-daqoiq”ning mulkiy munosabatlarga oid boblari tahlil qilingan, O‘zbekiston va boshqa fondlardagi nusxalar tavsiflangan [1]. Ushbu maqola shu tadqiqotning salam va istisno’ga oid qismini qiyosiy mezonlar asosida rivojlantiradi. O‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotda bu ikki shartnomani klassik hanafiy matn asosida alohida qiyoslagan tadqiqotlar kam uchraydi; mavjud ishlar asosan islomiy moliyaning zamonaviy shakllariga bag‘ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Asosiy material sifatida “Kanz ud-daqoiq”ning salam bobi (istisno’ga oid qismi bilan) va rahn kitobi, ularning Zaylaiy va Ibn Nujaym sharhlaridagi izohi hamda muallifning dissertatsiyasidagi 2.2 va 2.3-paragraflar olindi [1–4]. Matndagi qoidalar muammoviy guruhlarga ajratildi: predmetni tavsiflash, to‘lovni aniqlash, ijroni belgilash va kelishuvning majburiyligi.

Qiyosiy usul bilan ikki shartnoma bir xil savollar asosida tekshirildi. Tizimli tahlil yordamida predmet tavsifi, to‘lov va ijro shartlari o‘zaro qanday bog‘langani aniqlandi. Terminologik tahlilda salam, istisno’, taomul, xiyor ar-ru’ya va rahn mustaqil tushunchalar sifatida ko‘rildi. Tarixiy yondashuv XIII–XIV asrlar chegarasida yozilgan matndagi qoidani keyingi davr amaliyoti bilan aralashtirmaslikka yordam berdi.

Tadqiqot chegaralari ham ochiq ko‘rsatiladi. Maqolada yangi qo‘lyozmalar kollatsiya qilinmagan va barcha hanafiy manbalar qamrab olinmagan. Tadqiqot “Kanz ud-daqoiq”ni tarixiy-

huquqiy meros yodgorligi sifatida o‘rganadi: undagi qoidalar amaldagi huquqiy tartibga solish uchun taklif sifatida ilgari surilmaydi, chunki O‘zbekiston Respublikasida shartnoma munosabatlari Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Zamonaviy moliyaviy mahsulotlarga huquqiy baho berilmaydi; AAOIFI standarti faqat klassik qoida bilan farqni ko‘rsatish uchun tilga olinadi.

Tahlil va natijalar. Salam va istisno’ni “hali mavjud bo‘lmagan narsaning savdosi” degan bitta ibora bilan tavsiflash dastlabki tasavvur beradi, xolos. Shartnoma tuzilganda mahsulotning topshirilmaganligi, uning hali yaratilmaganligi va kelajakdagi majburiyatning noma’lumligi turli masalalardir. Salamda mahsulot bozorda mavjud bo‘lib, keyinroq yetkazilishi mumkin; istisno’da u buyurtma bo‘yicha tayyorlanadi. Ikkala holatni bir xil noaniqlik deb baholash shartnomalarning farqini yo‘qotadi. Hanafiy manbalarda salam qiyosga ko‘ra emas, nass bilan joiz qilingani, istisno’ esa istihson va odamlar o‘rtasidagi taomul tufayli joiz deb topilgani qayd etiladi [7; 8]. Asos farqi keyingi shartlarning farqini ham belgilaydi.

Hanafiy manbalar salamning diniy-huquqiy asosi sifatida Ibn Abbos rivoyat qilgan hadisni keltiradi; unda salam ma’lum o‘lchov, ma’lum vazn va ma’lum muddat bilan bog‘lanadi [7; 8]. Hadisdagi uch talab – o‘lchov, vazn va muddat – keyingi fiqhiy shartlarning asosi bo‘lgan. Koshoniy salam shartlarini to‘rt guruhga ajratadi: shartnomaning o‘ziga, ikkala badalga birgalikda, ra’s al-molga va salam qilinadigan mahsulotga (muslam fih) oid shartlar [7]. “Kanz ud-daqoiq”da bu shartlar guruhlarga ajratilmasdan, ketma-ket qisqa jumlalarda beriladi; sharhlovchilar esa ularning har birini alohida izohlaydi [3; 4]. Shuning uchun matnni sharhsiz o‘qigan tadqiqotchi qaysi shart qaysi tomonga tegishli ekanini aniqlashda qiynalishi mumkin.

Salam predmeti haqida “Kanz ud-daqoiq” va uning sharhlarida asosiy talab shuki, mahsulot tavsif orqali shunday aniqlanishi kerakki, tavsifga mos har qanday namuna bilan majburiyat bajarilsin [2; 3]. Shuning uchun salam o‘lchanadigan (makil), tortiladigan (mavzun), uzunlik bilan o‘lchanadigan va bir-biriga yaqin sanaladigan (adadiy mutaqorib) narsalarda joiz deb ko‘rsatiladi. Tuxum va yong‘oq kabi donalari orasida sezilarli farq bo‘lmagan buyumlar shu turkumga kiradi; har bir donasi qiymati jihatidan farq qiladigan narsalar esa undan chiqariladi [2; 4]. Bu ajratishdan kelib chiqadigan xulosa: bir xil miqdor har doim bir xil sifat yoki qiymatni anglatmaydi, demak, sanashning o‘zi predmetni to‘liq aniqlab bermasligi mumkin.

Mahsulotning jinsi, navi, sifati va miqdori birgalikda belgilanadi. Bu belgilarni oddiy ro‘yxat sifatida emas, bir-birini to‘ldiradigan aniqlashtirish vositalari sifatida o‘qish kerak: jins ko‘rsatilib, sifat noma’lum qolishi, miqdor aytilib, o‘lchov birligi tushunarsiz bo‘lishi mumkin. “Kanz ud-daqoiq”da hajmi noma’lum muayyan idish yoki muayyan kishining ziro’i bilan o‘lchashga asoslangan salam joiz emasligi aytiladi [2]. Sababi aniq: taraflar tilga olgan o‘lchov yo‘qolsa yoki uning hajmi bilinmasa, nizo uchun asos qoladi. Demak, o‘lchov nomining

mavjudligi yetarli emas, u taraflar uchun bir xil tushunilishi kerak. Tarixiy atamani tarjima qilishda shu vazifasini ham izohlash lozim. Salam predmeti, muddati, joyi va to‘lovi bo‘yicha shartlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Salam shartlari va ularning vazifasi (hanafiy manbalar asosida)

Mezon	Vazifasi	Mezon bajarilmaganda yuzaga keladigan muammo
Jins (mahsulot turi)	Qaysi mahsulot topshirilishini belgilaydi	Taraflar turli narsani nazarda tutadi
Nav	Bir jins ichidagi turni ajratadi	Narxi va sifati farqli navlar aralashadi
Sifat (a’lo, o‘rta, past)	Topshiriladigan namunaning darajasini belgilaydi	Qabul qilishda nizo kelib chiqadi
Miqdor va o‘lchov birligi	Majburiyat hajmini aniqlaydi	Hajmi noma’lum muayyan idish yoki ziro’ nizoga olib keladi
Muddat (ajal)	Topshirish vaqtini belgilaydi	Ijroni talab qilish vaqti noaniq qoladi
Topshirish joyi	Tashish xarajati kimga tushishini aniqlaydi (Abu Hanifa nazdida shart; ikki shogirdi nazdida joy aytilmasa, shartnoma joyi olinadi)	Joy va xarajat bo‘yicha turli kutishlar paydo bo‘ladi
Ra’s al-mol (to‘lov) miqdori	To‘lov tomonini aniqlaydi (miqdorini aytish Abu Hanifa nazdida shart, ikki shogirdi nazdida ko‘rsatish yetarli)	Shartnomaning faqat bir tomoni aniq bo‘ladi

Mahsulot misollari ham shu mantiqni ko‘rsatadi. “Kanz ud-daqoiq” va sharhlarda g‘isht uchun qolip o‘lchami, mato uchun uzunlik, eni va sifati ko‘rsatilishi talab qilinadi [2; 4]. Bu misollarni alohida buyumlar ro‘yxati sifatida emas, tavsiflash usulining namunasi sifatida o‘qish foydaliroq: ular qaysi belgi mahsulotlar o‘rtasidagi farqni kamaytirishini va ijroni tekshirishga yordam berishini ko‘rsatadi. Baliqqa oid bayonda yana bir talab ochiladi. Hanafiy manbalarda salam qilinadigan mahsulotning shartnoma tuzilgan paytdan topshirish muddatigacha bozorda uzluksiz mavjud bo‘lishi shart qilinadi [7; 8]. Shuning uchun yangi baliq yil davomida topilmaydigan joyda u bilan salam qilish cheklanadi, tuzlangan baliq esa vazn bilan aniqlanganda joiz deb ko‘riladi [2; 3]. Bu misolning ahamiyati baliq bilan cheklanmaydi: mahsulotni aniqlash bilan birga, kelishilgan vaqtda uni yetkazish imkoniyati ham hisobga olinadi.

Go‘sht masalasida mazhab ichidagi farq aniq ko‘rinadi. Abu Hanifa go‘shtda salamni joiz ko‘rmagan, chunki uning suyagi va semizligi farqli bo‘lib, tavsif bilan to‘liq aniqlanmaydi. Abu Yusuf va Muhammad esa go‘shtning turi, tananing qaysi qismi, semizligi va miqdori ko‘rsatilsa, joiz deb hisoblagan [3; 8]. Bu holat hanafiy mazhabni barcha masalalarda yagona javobdan iborat tizim sifatida tasvirlash to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi. Qiyosiy tadqiqot uchun farqning o‘zi

natijadir: qaysi sifatlar mahsulotni yetarli darajada aniqlaydi, degan savol turlicha baholangan. Shuning uchun har bir qarash muallifi va sharti bilan birga keltirilishi kerak.

Salam to‘lovi bo‘yicha manbalarda yagona qat’iy talab bayon qilinadi: ra’s al-mol taraflar majlisdan ajralishidan oldin to‘liq topshiriladi [2; 7]. Aks holda ikkala tomonning majburiyati kelajakka qoladi va bu qarzni qarzga sotish (bay’ al-kali’ bil-kali’) taqiqiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli salamni istalgan kechiktirilgan yetkazib berish bilan tenglashtirib bo‘lmaydi: mahsulot keyin topshirilsa ham, haq darhol beriladi. Bundan tashqari, Abu Hanifa ra’s al-mol o‘lchanadigan, tortiladigan yoki sanaladigan narsa bo‘lsa, uning miqdori ham ma’lum bo‘lishini shart qilgan; Abu Yusuf va Muhammad uchun uni ko‘rsatib berishning o‘zi yetarli [3; 8]. Bu farq shartnomaning ikkala tomoni – mahsulot ham, uning evazidagi haq ham – aniq bo‘lishi talabi bilan bog‘liq.

Ijro muddati va topshirish joyi kelishuvni yakunlaydigan belgilardir. Salamda muddat ma’lum bo‘lishi shart; hanafiy manbalarda eng kam muddat haqida bir necha qarash keltirilgan, Ibn Obidin esa fatvo bir oy haqidagi qarashga berilganini qayd etadi [3; 9]. Tashish va xarajat talab qiladigan mahsulotda Abu Hanifa topshirish joyini ko‘rsatishni shart qiladi, ikki shogirdi esa joy ko‘rsatilmasa, shartnoma tuzilgan joy nazarda tutiladi deb hisoblaydi [2; 8]. Mazkur shart mahsulot qayerda topshirilishi va tashish xarajatini kim ko‘tarishi yuzasidan nizoning oldini oladi. Dissertatsiya tadqiqotida qayd etilganidek, ayrim nashrlarda shu shartga oid iboraning tushib qolishi yoki bitta so‘zning boshqacha o‘qilishi qoidaning ma’nosini o‘zgartiradi [1]. Shu bois qiyosiy xulosadan oldin tahqiq qilingan nashrga tayanish talab etiladi.

Salam predmetini muayyan qishloq hosili yoki aniq bir daraxt mevasi bilan cheklash joiz emasligi haqidagi qoida ham shu bobda keltiriladi [2; 4]. Bunday cheklov ijro imkoniyatini toraytiradi: o‘sha hosil olinmasa, tavsifga mos boshqa mahsulot bilan majburiyatni bajarish ham kelishuvning o‘zida yopiladi. Tahlil jihatidan bu mahsulotni tavsiflash bilan uning yagona manbasini belgilash o‘rtasidagi farqdir. Birinchisi aniqlikni oshiradi, ikkinchisi ijroni xavf ostiga qo‘yadi. Ibn Nujaym bu cheklov mahsulot turini emas, uning kelib chiqish manbasini belgilaganda yuzaga kelishini izohlaydi [4].

Istisno’ “Kanz ud-daqoiq”da etik (xuff), idish (qumqum) kabi buyumlarni buyurtma bilan tayyorlatish misolida izohlanadi [2]. Bu yerda buyurtmachi tayyor buyumni shunchaki keyinroq olishni emas, muayyan xususiyatli mahsulot tayyorlanishini ko‘zlaydi. Yuqorida aytilganidek, istisno’ ehtiyoj va taomul sababli istihson bilan joiz qilingan [7; 8]. Shu sababli istisno’ faqat taomul bor narsalarda qo‘llanadi; taomul bo‘lmagan buyumda u salam shartlari bilan baholanadi. Material, o‘lcham, sifat va narx kelishilishi tayyor mahsulotni baholash uchun mezon yaratadi.

Taomul tushunchasi bu bobda odamlar o‘rtasida shakllangan buyurtma amaliyotini bildiradi. Lekin uni cheklanmagan ruxsat manbai deb talqin qilish uchun asos yo‘q. Matnda taomul predmet va kelishuvning ma’lum shartlari bilan birga ishlaydi: odat mavjudligi noaniq tavsifni

o‘z-o‘zidan to‘ldirmaydi. Bundan tashqari, “Kanz ud-daqoiq”da muddat belgilangan istisno’ salam hisoblanishi aytiladi; sharhda bu Abu Hanifa qarashi ekani, ikki shogirdi esa taomul bor buyumda uni istisno’ligicha qoldirishi izohlanadi [2; 3]. Bu qoida muddat belgisi ikki shartnomani ajratuvchi mezonlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Istisno’ning predmeti haqida ham savol bor: shartnoma tayyor buyumgami yoki usta bajaradigan ishgami tuziladi? Marg‘inoniy shartnoma predmeti ish emas, buyumning o‘zi ekanini ta’kidlaydi; shuning uchun usta boshqa joyda tayyorlangan, tavsifga mos buyumni olib kelsa ham, majburiyat bajarilgan hisoblanadi [8]. Koshoniy esa istisno’da material ustadan bo‘lishini shart qiladi; material buyurtmachidan bo‘lsa, kelishuv ijara (ish haqi evaziga xizmat) deb baholanadi [7]. Demak, istisno’ni faqat xizmat ko‘rsatish sifatida tarjima qilish uning fiqhiy tabiatini noto‘g‘ri beradi. Material kimga tegishli va natija qanday topshiriladi, degan savollar shartnoma turini belgilaydi.

Ko‘rish huquqi (xiyor ar-ru’ya) istisno’ning salamdan farq qiladigan asosiy jihatlaridan biridir. “Kanz ud-daqoiq” va sharhlarda buyurtmachi tayyor buyumni ko‘rgach, uni qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega ekani bayon qilinadi [2; 3]. Abu Hanifa va Muhammaddan kelgan mashhur rivoyatga ko‘ra, istisno’ buyum tayyorlanib buyurtmachiga ko‘rsatilgunga qadar ikkala taraf uchun majburiy emas, ko‘rsatilgandan keyin esa faqat usta uchun majburiy bo‘ladi. Abu Yusufga nisbat berilgan rivoyatda esa buyum tavsifga mos tayyorlansa, buyurtmachining tanlash huquqi bo‘lmaydi va shartnoma ikkala taraf uchun majburiy bo‘ladi [7; 9]. Shu sababli istisno’ni hech qanday shartsiz va barcha holatlarda bir xil majburiy shartnoma deb ta’riflash manbadagi muhokamani haddan tashqari umumlashtiradi. Ko‘rish huquqi, nuqson sababli rad etish (xiyor al-ayb) va kelishib bekor qilish (iqola) ham alohida institutlardir; ularni bir-biriga aralashtirmaslik kerak.

Atamalarni o‘zbek tiliga o‘girishda ham ehtiyotkorlik kerak. “Salam” so‘zini “oldindan sotib olish” deb berish uning asosiy shartini – to‘lovning majlisda topshirilishini ko‘rsatmaydi; “istisno’”ni “buyurtma” deb tarjima qilish esa uning taomulga bog‘liqligini va ko‘rish huquqini yashiradi. “Ra’s al-mol” to‘lov summasi, “muslam fih” salam qilinadigan mahsulot, “muslam ilayh” mahsulotni yetkazuvchi, “rabb as-salam” esa to‘lovchi tarafni bildiradi. Bu atamalar birinchi qo‘llanganda izohlanib, keyin bir xil shaklda ishlatilsa, tarjima matnning ixchamligini ham, aniqligini ham saqlaydi. Aks holda turli tarjimalarda bir atama turli ma’noda kelib, qiyosiy tahlil natijalari bir-biriga mos kelmay qoladi.

Ikki shartnomani qiyoslash natijalari 2-jadvalda jamlandi. Jadvalga yuqorida sanalgan sakkiz mezondan tashqari, ikki shartnomaning joizlik asosi ham kiritildi. Jadval muallifning taklifi bo‘lib, kataklarda faqat yuqorida tahlil qilingan manbalar ko‘rsatgan qoidalar berildi.

2-jadval. “Kanz ud-daqoiq”da salam va istisno’ning qiyosiy tavsifi

Mezon	Salam	Istisno’
Joizlik asosi	Nass (hadis) bilan, qiyosga zid ravishda joiz	Istihson va taomul asosida joiz
Shartnoma predmeti	Zimmadagi, tavsif bilan aniqlangan mahsulot	Buyurtma bo‘yicha tayyorlanadigan buyum; Marg‘inoniyga ko‘ra predmet – buyumning o‘zi, ish emas
Mahsulot tavsifi	Jins, nav, sifat, miqdor aniq bo‘lishi; donalari keskin farq qiladigan narsalar chiqariladi	Material, o‘lcham, sifat va shakl kelishiladi; taomul bor buyumlar bilan cheklanadi
To‘lov vaqti	Ra’s al-mol majlisda, ajralishdan oldin to‘liq topshiriladi	To‘lovni darhol berish sharti qo‘yilmaydi
Ijro va topshirish	Ma’lum muddat shart; tashish talab qiladigan mahsulotda joy (Abu Hanifa)	Buyum tayyor bo‘lganda topshiriladi; muddat belgilansa, Abu Hanifa nazdida salamga aylanadi
Urf va taomul	Asosiy mezon emas	Joizlikning sharti
Xiyor ar-ru’ya	Mavjud emas: mahsulot tavsifga mos bo‘lsa, qabul qilinadi	Buyurtmachi tayyor buyumni ko‘rgach tanlash huquqiga ega
Majburiylik	Tuzilgan paytdan majburiy	Mashhur rivoyatda buyurtmachiga ko‘rsatilgunga qadar majburiy emas, keyin faqat usta uchun majburiy; Abu Yusufga nisbat berilgan rivoyatda tavsifga mos buyumda ikkala taraf uchun majburiy
Ta’minot (rahn) bilan aloqa	Mahsulot majburiyati rahn bilan ta’minlanishi mumkin; rahn shartnoma turini o‘zgartirmaydi	Manbada alohida ko‘rsatilmagan; mashhur rivoyatda shartnoma majburiy bo‘lmagani uchun bu masala alohida tekshirishni talab qiladi

Jadvaldan ko‘rinadiki, ikki shartnomaning umumiy tomoni mahsulotga doir majburiyatni oldindan aniqlash zaruratidir. Har ikki holatda noaniq nom, turlicha tushuniladigan sifat yoki tekshirib bo‘lmaydigan miqdor nizoga olib keladi. Biroq salamda tavsiflangan mahsulotni kelajakda yetkazish va to‘lovni darhol berish markazda tursa, istisno’da buyurtma bo‘yicha tayyorlanadigan natija va uni ko‘rib baholash muhim. Salamdagi majlisda to‘lash talabini istisno’ga dalilsiz ko‘chirish yoki istisno’dagi ko‘rish huquqini salamga tatbiq etish manbaning o‘ziga zid keladi.

Rahn bu tahlilda yordamchi o‘rin egallaydi. “Kanz ud-daqoiq”da rahn haqni undirish mumkin bo‘lgan mol bilan uni ta’minlash sifatida ta’riflanadi; unda rohin (garov beruvchi), murtahin (garov oluvchi), marhun (garov narsa) va marhun bih (ta’minlanadigan haq) farqlanadi [1; 2]. Rahn qabz bilan to‘liq bo‘ladi, garov narsa esa rohin mulkida qoladi, murtahin faqat uni ushlab turadi [7]. Salam mahsuloti yoki ra’s al-mol uchun rahn olinishi mumkin [2], lekin bu

rahnni mahsulot tayyorlash yoki yetkazish shartnomasiga aylantirmaydi. Shu sababli salam, istisno’ va rahnni bitta turkumdagi uchta savdo shartnomasi sifatida tasniflash noto‘g‘ri. Ta’minot asosiy kelishuvdagi nuqsonni ham yo‘qotmaydi: mahsulot noma’lum yoki ijro sharti tushunarsiz bo‘lsa, garov nimani topshirish kerakligini aniqlab bermaydi.

Muhokama. Natijalar zamonaviy adabiyotdagi bir qator xulosalarga aniqlik kiritadi. Kamoliy salamni fyuchers shartnomasidan ajratib, asosiy farq ra’s al-molning darhol to‘lanishida ekanini ko‘rsatadi [5]. Bizning tahlilimiz bu farqni qo‘llab-quvvatlaydi va unga yana ikki mezonni qo‘shadi: mahsulotning uzluksiz mavjudligi va uning manbasini cheklash taqiqi. Usmoniy va Borhan istisno’ning salamdan farqini to‘lovning darhol shart emasligi, muddat qat’iy emasligi va buyumning tayyorlanishi orqali tushuntiradi [6; 12]. “Kanz ud-daqoiq” materiali bu farqlarni tasdiqlaydi, lekin muddat belgilanganda istisno’ salamga aylanishi haqidagi Abu Hanifa qarashi ikki shartnoma chegarasi qat’iy emasligini ham ko‘rsatadi.

Endi istisno’ning majburiyligi masalasiga to‘xtalamiz. Zamonaviy amaliyotda, xususan, AAOIFIning 11-sonli “Istisno’ va parallel istisno’” Shari’ah standartida istisno’ shunchaki va’da emas, majburiy shartnoma ekani belgilangan; salam va parallel salamga esa 10-sonli standart bag‘ishlangan [13]. Standartning asoslash qismida bu yechim Abu Yusuf qarashiga va uni qabul qilgan “Majalla”ga tayanishi, usta tayyorlashga sarflagan mablag‘ zarar ko‘rmasligi kerakligi bilan izohlanadi [13]. El-Gamal ta’kidlaganidek, klassik nomning zamonaviy mahsulotda qo‘llanishi uning tarixiy model bilan aynan bir xil ekanini anglatmaydi [11]. Vogel va Xeyz ham klassik qoidalarni zamonaviy moliyaga ko‘chirishda tavakkal taqsimoti va hujjatlashtirish kabi yangi masalalar paydo bo‘lishini qayd etadi [10]. Shu sababli “Kanz ud-daqoiq”dagi mashhur rivoyat bilan zamonaviy standartdagi yechim o‘rtasidagi farqni ochiq ko‘rsatish ilmiy halollik talabidir.

Natijalarning yana bir jihati usta (soni’) huquqlari bilan bog‘liq. Hanafiy manbalarda aytilishicha, usta tayyor buyumni buyurtmachiga ko‘rsatgunga qadar uni boshqa kishiga sotishi mumkin, chunki shartnoma bu bosqichda hali muayyan buyumga bog‘lanmagan [7; 8]. Buyum buyurtmachiga ko‘rsatilgandan keyin esa ustaning tanlash huquqi tugaydi, buyurtmachiniki saqlanadi. Bu tartib istisno’da ikki tarafning manfaatini turlicha himoya qiladi: usta materiali va mehnati uchun zarar ko‘rmasligi, buyurtmachi esa tavsifga mos kelmagan buyumni qabul qilishga majbur bo‘lmasligi kerak. Abu Yusuf qarashi birinchi manfaatni, mashhur rivoyat esa ikkinchisini ustun qo‘yadi. Zamonaviy standartning Abu Yusuf qarashini tanlashi shu muvozanatning amaliy ehtiyoj tomonga siljiganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning cheklovlari ham bor. Tahlil bitta matn va uning ikki asosiy sharhi atrofida olib borildi, boshqa hanafiy qisqa matnlar (masalan, “Muxtasar al-Quduriy” yoki “al-Viqoya”) bilan tizimli qiyoslanmadi. Milliy qonunchilik bilan qiyoslash ham maqola doirasidan tashqarida qoldi.

Xulosa. “Kanz ud-daqoiq” materiali salam va istisno’ni bir xil oldindan to‘lov shakli sifatida emas, alohida shartlarga ega ikki institut sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Salamda mahsulotning jinsi, navi, sifati va miqdori, uning muddat davomida mavjudligi, ra’s al-molning majlisda topshirilishi hamda muddatning, tashish talab qiladigan mahsulotda esa Abu Hanifa nazdida topshirish joyining aniqligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Istisno’da taomul, buyurtma bo‘yicha tayyorlash, materialning ustadan bo‘lishi va tayyor buyumni ko‘rish huquqi ajralib turadi. Rahn salamda ra’s al-mol va muslam fih uchun olinishi mumkin bo‘lgan ta’minot vositasi bo‘lib, shartnoma tabiatini o‘zgartirmaydi.

Mazhab ichidagi qarashlar farqi qiyosiy tahlilda saqlanishi kerak. Go‘shtda salam, ra’s al-mol miqdori, topshirish joyi va istisno’ning majburiyligi haqidagi Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad qarashlarini bitta “hanafiy hukm”ga birlashtirish manbadagi muhokamani toraytiradi.

Tadqiqot natijalaridan quyidagi tavsiyalar kelib chiqadi. Birinchidan, islomshunoslik yo‘nalishidagi oliy ta’lim o‘quv qo‘llanmalarida salam va istisno’ni 2-jadvaldagi kabi mezonlar asosida qiyosiy jadval bilan berish talabalarga ularni farqlashni osonlashtiradi. Ikkinchidan, “Kanz ud-daqoiq”ni o‘zbek tiliga tarjima qilishda makil, mavzun, ra’s al-mol, xiyor ar-ru’ya kabi atamalar birinchi qo‘llanganda izohlanib, keyin bir xil shaklda berilishi lozim. Uchinchidan, keyingi tadqiqotlarda arabcha matn va sharhlarning parallel parchalarini tahqiq qilingan nashrlar asosida tekshirish, klassik qoidalarni AAOIFI standartlari bilan esa alohida, mezonma-mezon qiyoslash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Юлдашев Н.М. «Канз-уд-дакаик» Хафизуддина ан-Насафи как источник по фикху имущественных отношений в ханафитском мазхабе: дис. … доктора философии (PhD) по исламоведческим наукам. – Ташкент, 2026.

2. Abu al-Barakat an-Nasafi. Kanz ad-daqa’iq fi al-fiqh al-hanafi / tahqiq Sa’id Bakdash. – Bayrut; al-Madina: Dar al-Basha’ir al-Islamiyya; Dar as-Siraj, 2011. – 723 s.

3. Az-Zayla‘i ‘Usman ibn ‘Ali. Tabyin al-haqa’iq sharh Kanz ad-daqa’iq. – Bulaq: al-Matba‘a al-Kubra al-Amiriyya, 1313–1315 h. – 6 j.

4. Ibn Nujaym Zayn ad-Din. Al-Bahr ar-ra’iq sharh Kanz ad-daqa’iq. – 2-nashr. – al-Qahira: Dar al-Kitab al-Islami, [s.a.]. – 8 j.

5. Kamali M.H. Islamic Commercial Law: An Analysis of Futures and Options. – Cambridge: Islamic Texts Society, 2000. – ISBN 978-0-946621-80-4.

6. Usmani M.T. An Introduction to Islamic Finance. – The Hague: Kluwer Law International, 2002.

7. Al-Kasani ‘Ala’ ad-Din. Bada’i‘ as-sana’i‘ fi tartib ash-shara’i‘. – 2-nashr. – Bayrut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1986. – 7 j.

8. Al-Marghinani Burhan ad-Din. Al-Hidaya fi sharh Bidayat al-mubtadi / tahqiq Talal Yusuf. – Bayrut: Dar Ihya’ at-Turath al-‘Arabi, [s.a.]. – 4 j.

9. Ibn ‘Abidin Muhammad Amin. Radd al-muhtar ‘ala ad-Durr al-mukhtar. – 2-nashr. – Bayrut: Dar al-Fikr, 1992. – 6 j.

10. Vogel F.E., Hayes S.L. Islamic Law and Finance: Religion, Risk, and Return. – The Hague; Boston: Kluwer Law International, 1998. – 330 p.

11. El-Gamal M.A. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – DOI: 10.1017/CBO9780511753756.

12. Borhan J.T. Istisna‘ in Islamic Banking: Concept and Application // Jurnal Syariah. – 2002. – Vol. 10, № 2. – P. 99–108.

13. AAOIFI. Shari‘ah Standard No. 10: Salam and Parallel Salam; Shari‘ah Standard No. 11: Istisna‘a and Parallel Istisna‘a // Shari‘ah Standards. – Manama: Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions, 2017.